



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 23-yanvar

№ 2100

Ayrim sudyalarni boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Turaboyev Raxmatillo Ibragimovich – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va cho'llanishning oldini olish bo'yicha loyiha ofisi yetakchi inspektori lavozimiga tayinlanganligi munosabati bilan Namangan viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Uychi tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Mamadiyev Sarvar Nosirjonovich – O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga tayinlanganligi munosabati bilan yozma arizasiga binoan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov